

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KITOBXONLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH YO‘LLARI

Muminova Dilafro‘z Akbaraliyevna

Namangan davlat universiteti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim

kafedrasi mudiri,

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b

dilbarxon2008@mail.ru

Zaynobiddinova Moxinur Abduvali qizi

Namangan davlat universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotation. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xorijiy davlatlar tajribalari asosida, bolaning kitobga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirish, kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir usullardan foydalanish haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan ko‘plab tadbir, tanlovlar va ularni xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish, o‘quvchilarni kitobga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Keywords. pedagogika, kitobxonlik, mutolaa, tanlov, muhit, psixologiya, o‘quvchilar, insoniyat, yoshlar, davlat, bolalar, kelajak, avlod, tafakkur.

Kitob insoniyat aql-zakovati yaratgan eng buyuk mo‘jizalardan biridir. Kitoblar va kutubxonalar o‘quvchi shaxsi kamoloti va uning taraqqiyotiga xizmat qilganligi uchun ham e‘zozlanadi. Bugungi kunda jahon miqiyosida kitob mutolaa qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va har bir shaxs uchun kitobning ahamiyati, kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy, o‘ziga xos jihatlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qish bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, uning psixologik, pedagogik, metodik talablari, oilaviy kitobxonlik va sinflar kesimida, sinfdan tashqari kitob o‘qishni tashkil qilish hozirgi zamondagi eng muhim bo‘lgan masalardan biridir. Yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, ularning faol kitobxon bo‘lib o‘sishida, davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki asosida bu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy izlanishlar va dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet texnologiyalaridan foydalangan holda kitobxonlik faoliyatini oshirishga, yosh avlodni mutolaaga qiziqishlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bir qancha ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni izlab topish bugungi kunda an‘ana tusini olmoqda. Bunday innovatsion usullar xorijiy davlatlarda jamiyatda kitobxonlikka bo‘lgan ijobiy munosabatni yuzaga keltirishga asosiy turtkilardan biri hisoblanadi. Bunday davlatning aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki aholini, ayniqsa, yoshlarning mutolaaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Kitobxonlik masalasiga bo‘lgan qiziqish va yondashuv jamiyatimizda turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrdagi shaxslarning kitoblarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Kitobxonlik madaniyatiga e‘tibor berish orqali, har bir davlatning kuch-qudratini,



davlatning fuqarolarining zehni, ongliligini belgilaydi. Albatta bunday kuch-qudratga ega bo'lish uchun har bir davlat fuqarolarining kitoblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, ularda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishi kerak. Kattalar adabiyotidan ko'ra, bolalar adabiyoti tanlovlarga muhtojroq. Kattalar o'z ongi rivojlanganligi darajasidan kelib chiqib kitob tanlay oladi. Ular o'zlaridagi qiziqishlarni yo'naltira oladi. Shakllanib bo'lgan adabiyot janrlarini o'zgartirish oson emas. Bolalarda esa bunday emas. Ularga ongi va tafakkuri ayni vaqtda shakllanayotgan davriga to'g'ri va kerakli ozuqa berish kerak. Ularning yoshiga, qiziqishlariga, jismoniy va aqliy qobiliyatlariga, bola psixologiyasidan kelib chiqqan holda adabiyotlarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Bolalarga o'zlari kelajakda barkamol, yetuk bo'lishlari, egallamoqchi bo'lgan kasb-hunarlarini egallashlari uchun ularga bilimlar ozuqasi kerak bo'ladi. Kitob - ana shunday ozuqadir. Lekin uning ham eng foydalisini bera bilish uchun bolalarning ota-onalar va pedagoglarga biror-bir tavsiya yoki ekspert nuqtai nazari kerak bo'ladi. Aksariyat hollarda ota-onalar o'zlari yoshligida o'qigan kitoblarni tavsiya qilshadi. Lekin, zamonaviy adabiyot, zamonaviy kitoblar bo'yicha ularning tasavvuri ham chegaralangan bo'lishi mumkin. Bolalarga ularga mos bo'lgan kitoblar tanlashga va ularni olishda yordam berish bilan bir qatorda, kitob mutolaa qilish uchun sharoit va muhit yaratib berish ham maqsadga muvofiqdir. Tashqi muhitning ta'siri bola rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi muhitning ta'siri natijasida bolaning hayotidagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va ekologik sharoitlar nazarda tutiladi. Demak, kitob mutolaa qilishda o'quvchi bolalarga tashqi muhit holati qandayligi muhimdir.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda ham bir qancha kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tanlov va musobaqalar o'tkazilmoqda. Jumladan: "Yosh kitobxon", "Eng yaxshi kitobxon maktab", "Eng yaxshi kitobxon oila", "Eng yaxshi kitobxon mahalla", "Eng yaxshi kitobxon yetakchi", "Eng faol kutubxonachi" va hokazo. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Yoshlar Ishlari Agentligi tashabbusi bilan "Mutolaa" ilovasi ishlab chiqildi va taqdim etildi. Mazkur platformada eng sara kitoblarning elektron, audio hamda video shaklidagi sifatli va tizimli shakli mavjud. "Mutolaa" loyihasi foydalanuvchilari soni hozirga qadar 248 ming nafardan ortgan bo'lsa, platformada 290 nafarga yaqin mualliflarning 501 ta audio, 576 ta elektron kitoblari joylashtirilgan. O'qilayotgan kitoblar soni esa 442 772 tani tashkil etmoqda. Shuningdek, loyiha doirasida 3 ta kitob-kino formatida hujjatli-badiiy film suratga olingan bo'lib, "Qo'rqma" kitobi asosida tasvirga olingan film ispan, rus va ingliz tillariga dublyaj qilindi. Bu kabi say-harakatlar Yangi O'zbekiston yoshlarining barkamol, har sohada o'z bilim va qudratiga ega qilib tarbiyalash, rivojlangan xorij davlatlar yoshlari bilan har qanday soha bo'lmasin raqobatbardosh bo'la olishlari, jamiyat rivoji uchun xizmat qila oladigan vatanparvar yoshlarni unib-o'sishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratib berishdir. Albatta bu tanlovlarni yoshlarni, nafaqat yoshlarni hamda yosh oila va hattoki yoshi ulug' bobo-buvilarni ham kitobga bo'lgan qiziqishlarini va mehrini oshirishga turtki bo'la oldi. Nega kitobxonlikka oid tanlov va tadbirlar muhim ahamiyatga ega? Avvalo, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har qanday yoshlar siyosatiga oid masalalar, o'sib kelayotgan yoshlarni har jabhada barkamol, yetuk, o'z sohasining eng zo'r mutaxassisi qilib tarbiyalash, zamon bilan hamnafas va zamonasining rivojlangan xorijiy mamlakat yoshlari bilan har sohada raqobatdosh bo'la olishini ta'minlaydi. Shunday tanlovlardan biri kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tanlovlardir. Avvalo, tanlovlar kitoblarning sifatlisini saralab olish imkonini beradigan vosita hisoblanadi. O'tkazilayotgan tanlov va tadbirlar kitoblarning yutuq va kamchiliklarini ochib berishga samarali vositadir. Shuningdek, tanlovlar sabab u yoki bu kitobga bo'lgan jamoatchilik, media sohasi ham e'tibor qaratadi. Bunday ishlar natijasida kitobga bo'lgan qiziqishlar soni ortib boradi va nashriyotlar tomonidan yangidan-yangi janrdagi kitoblar chop etish uchun imkoniyat va xohishlar paydo bo'lishi mumkin. Rivojlangan davlatlarda mavjud sharoitda asosi e'tibor kutubxona-axborot tarmoqlarini rivojlantirish, ularni an'anaviy va zamonaviy kitoblar hamda kitob mahsulotlari bilan boyitish, aholi, shu jumladan, yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan



targ'ibotning innovatsion shakl, metod va vositalarini yaratishga qaratilgan. Mutolaa madaniyati keng rivojlangan mamlakatlarda yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongi va tafakkuri, dunyoqarashini yuksalgan, o'z yurtiga va xalqiga bo'lgan muhabbati va sadoqat tuyg'usini shakllangan holda ko'rishimiz mumkin.

“Mutola” so'zi arabcha “o'qish” degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra, kengroq tushunchalarni anglatmoqda.

Jahonning bir qator rivojlangan davlatlarda “Kitob ko'rgazmasi”, “Kitob bayrami”, “Kitob yarmarkasi” kabi tadbirlarning tashkil etilishi an'anaga aylangan. Mazkur an'ana Markaziy Osiyo davlatlarida ham keng yoyilmoqda. Jumladan, 2023-yilning 23-25-aprel kunlari Qozog'iston Respublikasining Ostona shahrida tashkil etilgan III Evroosiyo xalqaro kitob yarmarkasida o'nlab mamalakatlarining adiblari, nashriyotlar va kitob do'konlarining vakillari ishtirok etdi. Mazkur tadbirlar kitob o'qish va kitobxonlikning o'ziga xos targ'ibotini rivojlantiradi. Turli davlatlarda faoliyat yuritayotgan adiblari, nashriyotlar va kitob do'konlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishda ham o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Rivojlangan davlatlarda mavjud sharoitda asosiy e'tibor kutubxona-axborot tarmoqlarini rivojlantirish, ularni an'anaviy va zamonaviy kitoblar va kitob mahsulotlari bilan boyitishdir. Bunday ishlar O'zbekiston Respublikasida ham keng targ'ib qilingan.

So'ngi yillarda kutubxonalarni axborotlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Elektron o'quv xonalari, mediaxonalar ochilmoqda. O'quvchilarda kitobxonlikni keng rivojlanishida kutubxonachilarning ham ahamiyati katta. O'quvchilar bilan ishlaydigan kutubxonachi o'z mutaxassisligi bo'yicha kutubxonachilik, metodik, bilim va ko'nikmalarga, boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyor bo'lishi lozim. Kutubxonachilar xuddi o'qituvchilar singari, insoniylik, bolalarga muhabbat, pedagogik fikrlash kabi fazilatlariga ham ega bo'lishi lozim. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o'quvchilarga: bolalar uchun yozilgan kitoblar haqida ma'lumotga ega bo'lishi, o'quvchilarga kitob o'qishni o'rgatishning turli usul, shakl, metodlarini qo'llay olishlari, asarlardagi qahramonlarni bolalarga tanishtira olish, kitob o'qishga odatlantirishda ko'zlanadigan pedagogik maqsad va vazifalarni to'g'ri anglab yetish va boshqa ko'plab metodikalar ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Ko'plab tanlov va tadbirlarda kitob o'qish sababli, bolalar va o'spirinlarning umumiy psixologik, intellektual, hattoki, fiziologik rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunonchi, kitob o'qish: asabni tinchlantiradi (Sasseks universiteti (AQSh) olimlarining yondashuvlariga ko'ra, kitob o'qitish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan. Buning uchun kuniga bor-yo'g'i 6 daqiqa vaqt sarflash talab etadi. Mana shu yondashuv asosida insonda o'qish orqali bilim, ko'nikma, malaka shakllanadi. Tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi idrok bilan belgilanadi. Bolalarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida oila va unda tashkil etilayotgan tarbiya masalalari muhim sanaladi. Qachonki oilaning katta yoshli a'zolari kitobxon bo'lsa, oilada kitobga nisbatan kattalarning ijobiy munosabati aks etsa, oila davrasida kitoblar va ularda bayon etilgan voqelik, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinsa, ularga nisbatan munosabat bildirilsa, oila a'zolari tomonidan yangi chop etilgan asarlar haqidagi ma'lumotlar o'zaro o'rtoqlashilsa, uning juda ham qiziqarli ekanligi e'tirof etilsa, bolalarda ham kitob o'qishga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyoj yuzaga keladi. Yoshlikdan shakllantirilgan kitobga nisbatan ijobiy munosabat kishining butun hayoti davomida o'z izini qoldiradi. Qolaversa, bu o'rinda uy kutubxonasining tashkil etilishi ham bolalarda kitobga, mutolaaga qiziqishlarini rivojlantirishga katta turtki bo'la oladi. Xorijiy davlatlarda yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish yo'lida ko'plab qilingan islohotlar bilan fikr almashish, andoza olish va ko'plab qo'shimcha integratsiyalar kiritish mumkin. Rivojlangan xorijiy davlatlar o'rtasida ham ko'plab kitobxonlikka oid forum, uchrashuvlar o'tkazilishi ham maqsadga



muvofiq. “Yosh kitobxon” tanlovini xorijiy davlatlar miqoyisida o‘tkazish va qo‘shimcha yangiliklar kiritish ham joizdir va albatta bu ishlar olib borilishi mutolaani rivojlanishiga katta yordam beradi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xorijiy davlatlarning o‘quvchilarida mutolaa madaniyati, kitobxonlikni rivojlanishi, jamiyat va shaxs o‘rtasida olib borilgan tadqiqotlarning natijalaridir. Bunday tadbirlar kitob o‘qishda katta yoshdagi kishilarning intellektual, psixologik va fiziologik rivojlanishi uchun yanada ijobiy ta’sir ko‘rsatishidan dalolat beradi. Shunday qilib, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida kitobxonlikni shakllantirish ishida tajribalarning mazmunini chuqur o‘zlashtirish, undan foydalanish mexanizmlari bilan qurollanish kerak. Bu bilan kitobxonlik madaniyatini innovatsion takomillashtirishda yuqori yutuqlarga erishiladi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 592 b.
2. Karimova X. Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini oshirish: ijodiy, innovatsion faoliyat va kadrlar salohiyati davr talabidir // Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari. Xalqaro konferensiya materiallari. – Andijon. 25–27-may, 2022. 216-223 b.
3. Umarov A. Kitob va kitobxon: an’analar va yangiliklar // Sog‘lom avlod uchun j. – T.: 2003. – №11. 16-20 b.
4. Umarov A. Mutolaa madaniyati – taraqqiyot omili // Betger o‘qishlari-2003: Kutubxona ustivorligi. davra suhbatlari to‘plami. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2003. 14-22 b.
5. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent. O‘qituvchi, 1996. – 29 b.
6. Akbaralievna M. D. Library is a High Virtue //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 42-45.
7. Akbaralievna M. D. The Role of Reading in Personal Development //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 138-141.
8. Muminova D. A. THE GIST OF DEVELOPING READING SKILLS ON PRIMARY SCHOOL PUPILS //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 6. – C. 482-485.

